

O'QITILADIGAN FAN DASTURLARINI TUZISH VA FAN O'QITUVCHILARIGA
QO'YILADIGAN TALABLAR

Umarqulova Shahzoda Bohodir qizi

Jizzax davlat pedagogika universiteti

Pedagogika va psixologiya fakulteti

Logopediya yo'nalishi 510-23 guruh talabasi

Annotasiya: O'qituvchilar ta'lim-tarbiyaning metodologik asoslari, mamlakatning iqtisodi va siyosati, mutaxassislik fanlari, ularni o'qitish metodikasi, pedagogika, psixologiya va yondosh fanlar asoslari majmuyidan tashkil topadigan professional bilimlarga ega bo'lishlari talab etiladi chuqur egallagan bo'lishlari lozim.

Kalit so'zlar: Kasbiy bilimlar negizida pedagogning xatti-harakati va xulqining asosini tashkil etuvchi, pedagogik prinsiplar va qoidalar vujudga keladi. Bu prinsip va qoidalarni har bir pedagog o'z tajribasiga va egallagan bilimlariga tayangan holda yaratadi va ularni doimiy ravishda takomillashtirib boradi.

Kirish

O'zbekiston Respublikasi o'z mustaqilligiga erishganidan buyon barcha sohalarda ko'zga ko'rinarli darajada islohotlar o'tkazib kelinmoqda. Jumladan, ta'lim va fan tizimi ham bundan mustasno emas. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi "Ta'lim to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining qoidalariga muvofiq holda tayyorlangan bo'lib, boshlang'ich sinf o'qituvchilari uchun ham yangi imkoniyat eshiklarini ochdi. Shu sababdan ham ta'lim sohasida faoliyat olib borayotgan har bir pedagog zamon rivojlanib borayotgan sari o'z ustida ishlashi, o'z qobiliyatlarini shakllantirib borishi zarur. «O'qituvchi o'z bilim malakasini oshirish usullarini puxta egallamog'i, mustaqil ishlashni o'rganmog'i lozim», - degan edi Abduraxmon Jomiy. Olimlarning fikrlariga ko'ra pedagogik mahoratning quyidagi asosiy sifatlari mavjuddir:

*O'z kasbiga muhabbat, o'quvchilarni seva olish;

*Fan dasturini mukammal bilish;

*Xushmuomala va chiqishuvchan bo'lish;

*Ijodiy va qiziq yondashuv;

*Javobgarlik va mas'uliyat hissi;

*Ta'lim va tarbiyani birgalikda olib borish.

*Pedagogik odob va go'zallikka ega bo'lish.

O'qituvchining qobiliyatlari uning mahoratida namoyon bo'ladi. Ba'zan shunday kasb egalarini uchratish mumkinki, o'zi qobiliyatli, bilimli bo'lsada buni o'quvchilariga yetkazib berishda qiyinchiliklarga uchraydi. Buning asosiy sababi pedagogik va psixologik mahoratning shakllanmaganligidadir. Pedagogik mahorat butun bir yaxlit tizimni tashkil qilgan bo'lib, uning tarkibi bir qator sifatlardan tashkil topgan.

O'qituvchilik – inson jamiyati tarixi boshlangandan e'tiboran davom etib, shu bilan birga hamma vaqt jamiyat va jamoatchilik tomonidan e'tiborga loyiq e'zozlab kelingan kasbdir. "O'qituvchi – deydi Abu Nasr Al- Forobiy, - aql-farosatga, chiroyli nutqqa ega bo'lishi va o'quvchilarga aytmoqchi bo'lgan fikrlarini to'la va aniq ifodalay olishni bilmog'i zarur." U o'z fikrini davom ettirib:

"O'qituvchi va rahbarning vazifasi dono davlat rahbari vazifasiga o'xshaydi, shu sababli o'qituvchi eshitgan va ko'rganlarining barchasini eslab qolishi, aql-farosatga, ravon nutqqa ega bo'lishi, o'qituvchilarga aytmoqchi bo'lgan fikrlarini to'la va aniq ifodalab berishni bilmog'i lozim. Shu bilan birga o'z nomusini qadrlashi, adolatli bo'lmog'i lozim. Ana

shundagina u insoniylikning yuksak darajasiga ega bo'ladi va baxt cho'qqisiga erishadi," – deb ta'kidlaydi. Abu Ali Ibn Sinoning fikricha, "O'qituvchi matonatli, sof vijdonli, rostgo'y va bolani tarbiyalash metodlarini, ahloq qoidalarini yaxshi biladigan odam bo'lmog'i lozim. Mahoratli ustoz o'quvchining butun ichki va tashqi dunyosini o'rganib, aql qatlamlariga kira olmog'i lozim." Nosiriddin Tusiy o'zining "O'qituvchilarni tarbiyalash to'g'risida" degan asarida shunday deydi: "... O'qituvchi munozaralarni olib borishi, rad etib bo'lmaydigan darajadagi isbot qilishni bilishi, o'z fikrlarining to'g'riligiga ishonishi, nutqi esa mutlaqo toza, jumalari mantiqiy ifodalanadigan bo'lishi lozim o'qituvchi nutqi hech qachon va hech qayerda zaharxandali, qo'pol yoki qattiq bo'lishi mumkin emas. Zamonaviy maktab o'qituvchisi qator vazifalarni bajaradi:

O'quv dasturi — ta'lim tizimidagi har bir o'quv fanining mazmuni va o'tilish tartibini, o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilishi lozim bo'lgan bilim hamda ko'nikmalar hajmini belgilab beradigan rasmiy pedagogik hujjat. O'zbekistonda O'quv dasturi tegishli vazirliklar qoshidagi ilmiy metodik kengashlar tomonidan tasdiqlanadi. Har bir O'quv dasturi uqtirish xati, o'quv fani mazmunining qisqa bayoni, o'quvchilarning bilim va ko'nikmalariga qo'yiladigan talablar singari 3 qismdan iborat. O'quv fanining maqsad va vazifalarini belgilab berish O'quv dasturining muhim belgisidir. Chunki ayni shu narsa yaratiladigan o'quv darsligi muallifiga muayyan nuqtai nazarni tanlash, o'qituvchiga esa pedagogik mo'ljalni to'g'ri belgilash imkonini beradi. Ta'lim amaliyotida O'quv dasturi yaratishning konsentrik (markazlashgan) hamda tizimli usullari bor. Konsentrik yo'l bilan tuzilgan O'quv dasturida ta'limning mazmuni yoki o'quv materiallari o'qitishning keyingi bosqichida yuksakroq darajada takrorlanishi ko'zda tutiladi. Boshlang'ich sinflarda o'tiladigan o'quv fanlari bo'yicha O'quv dasturlari shu usulda tuziladi. Tizimli usuldagi O'quv dasturlarida o'quv materiallari fan mantig'iga muvofiq soddadan murakkabga qarab ketma-ket joylashtiriladi. Maktabning boshlang'ich sinfdan keyingi bosqichlarida qo'llaniladigan bu usulda ortiqcha takrorlarga yo'l qo'yilmaydi, har bir mavzuning o'z o'rnida o'tilishi ko'zda tutiladi. Ta'limning O'quv dasturi tomonidan belgilangan mazmuni darslik, o'quv qo'llanmalari, ko'rgazmali qurol va metodik tavsiyalarda to'la namoyon bo'ladi. O'qituvchilar umumta'lim fanlarini o'qitish darsining mazmuniga O'qituvchiga jamiyat tomonidan qo'yiladigan talablar, turli xildagi ijtimoiy kutishlar, pedagogning individualligi, uning, shu tariqa talablarga javob berishga subyektiv tayyorgarligi muayyan o'qituvchining pedagogik faoliyatga naqadar tayyorgarligidan dalolat beradi. Muhim davlat vazifasini – Kadrlar tayyorlash milliy dasturini amalga oshirayotgan zamonaviy maktab o'qituvchisining xislatlari, uning ijodiy faoliyati, asosan, amaliy ishda, pedagogik tajribalarni egallash jarayonida o'sib rivojlana boradi. Shu bilan birga o'qituvchi doimiy ravishda o'z malakasini oshirib, o'zishining muvaffaqiyatini yuqori darajada ta'minlashga yordam beradigan shaxsiy xislatlarini tarbiyalab borishi zarur. Jamiyat uchun o'qituvchining o'rne va roli beqiyos. Ularning saviyasi jamiyatni yo tubanga, yoki yuksakka olib boradi. Tushunarli bo'lishi kerakki, o'qituvchi – ulkan mas'uliyatli, hur fikrli va o'sib boruvchi bilim egasi. Zamonaviylik uning majburiy sifati, bilimiga qanady talab bo'lsa, unga ham shunchalik qat'iy talab bo'ladi. Ya'ni bilimini bu zamonga muvofiqlashtirib borilmasa, nafi va dollzarbligi kamayib boradi. Demak, keng dunyoqarash, hur fikrlash va zamonaviylik – o'qituvchining majburiy kasb talabi.

Pedagogik texnika – pedagogik mahoratning tarkibiy qismlaridan biri bo'lib, o'qituvchining o'quvchilarga ta'sir o'tkazish vositasi hisoblanadi. Pedagogik texnikani yetarli darajada egallagan o'qituvchining o'quvchilar bilan muloqotga kirishish mahorati yuqori bo'ladi. Zarur so'z va gapni kerakli paytda, talab etiladigan ohangda ishlatish, qanday qarash, imo-ishoralardan tez va aniq foydalanish, eng keskin va kutilmagan pedagogik vaziyatlarda ham osoyishtalik va aniq fikr yuritish, tahlil qilish qobiliyatini saqlab qolish imkonini beradi. Pedagogik texnika quyidagi tarkibiy qismlardan iborat: nutq malakalari; pedagogning mimikasi va pantomimikasi; o'z psixologik(ruhiy) holatini boshqara olishi; aktyorlik va rejissorlik mahorati.

Avvalo, pedagogik texnikaning tarkibiy qismi sifatida pedagogning nutq malakalarini, ya'ni savodli gapirish, nutqini chiroyli va tushunarli, ta'sirchan qilib bayon etish, o'z fikr va his-tuyg'ularini so'zda aniq ifodalash malakalarini aytib o'tish mumkin. Olimlarning hisoblashlariga ko'ra o'quv uchun ajratilgan vaqtning taxminan 1/4 - 1/2 qismi o'quvchilarning o'qituvchi nutqini eshitishlari va tushunishlari uchun sarflanadi. Demak, o'quv materialining o'quvchilar tomonidan puxta o'zlashtirilishi o'qituvchi nutqining kamoloti va yorqinligiga bog'liq ekan.

Haqiqatan ham, A.Avloniy ta'kidlaganidek "So'z insonning daraja va kamoli, ilm va fazlni ulug'lab ko'rsatadurg'on tarozisidir. Aql sohiblari kishilarning fikr va niyatini, ilm va quvvatini, qadr va qimmatini so'zlagan so'zidan bilur". Ayniqsa, o'quvchilar o'qituvchi talaffuzi, nutq texnikasiga katta e'tibor berishadi.

Duduq, kirish, tovushga taqlid kabi so'zlarning, masalan "aytaylik", "xo'sh", "anaqa", "o'tga-bo'tga", "demak" yoki bitta so'zni ketma-ket uch martagacha takrorlash kabi so'zlarning o'rinsiz ravishda ko'p takrorlanishi o'quvchilarning ensasini qotiradi. Bunday hol faqat o'rta maktab o'qituvchilari va o'quvchilari orasidagina emas, balki oliy o'quv yurti professor-o'qituvchilari orasida ham uchrashi achinarli hol.

Hozirgi kunda nutq texnikasiga doir mashqlar tizimi ishlab chiqilgan. Bu tizim teatr pedagogikasi tajribalariga tayanadi hamda nutq paytida to'g'ri nafas olish, tanaffus va diksiyani so'zlash kabi ko'nikmalar o'quv-metodik majmuasidan tashkil topgan. Mazkur tizimni o'zlashtirish uchun o'z ustida muntazam ishlagan har qanday inson, jumladan, yoshlarga ta'lim-tarbiya beruvchi o'qituvchi va murabbiylar o'z nutqini to'g'rilay oladi. Kishining ovozi, tabiati o'zgarmas degan fikrlarga qo'shilib bo'lmaydi.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlab o'tish joizki, kasbiy faoliyati davomida o'z o'rnini topmoqchi bo'lgan har bir shaxs bir soniya ham harakatdan to'xtamasligi, o'z ustida tinimsiz mehnat qilib ter to'kishi talab etiladi. Ayniqsa, taraqqiyot asrida yangi pedagog kadrlar o'zlarini isloh qilib, zamonaviy bolalarimizga kreativ usuldagi dars jaryonlarini tashkil qilishlari zamon talablaridan hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- 1.Daminov O. Kasbiy pedagogika. – T.: "Adabiyot uchquni", 2018. – 256 b.
- 2.M. Davletshin. Zamonaviy maktab o'qituvchisining psixiologiyasi. Toshkent, 2003-yil
3. Mukarram Axmedova "Pedagogik kompetentlik", Toshkent, 2018-yil
- 4.Dilova H.G. (2018) Buyuk ajdodlarimizning ta'limotlarida mujassamlashgan o'qituvchi bilan o'quvchilar hamkorligining pedagogik xususiyatlari. Zamonaviy ta'lim. №3, 63-68 b.
- 5.WWW. Ziyonet.uz Ibragimova G.N. Interfaol o'qitish metodlari va texnologiyalari o'quvchilarning kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirish. I Monografiya .-T. " Fan va texnologiyalar", 2016.-77-b